

“Sirdaryo IES” AJ Yoshlar ittifoqining Boshlang‘ich tashkilotlar to‘g‘risida

N I Z O M

I. Umumiy qoidalar

1. “Sirdaryo IES” AJ Yoshlar ittifoqining korxonada, tashkilot va muassasalardagi boshlang‘ich tashkiloti (*keyingi o‘rinlarda boshlang‘ich tashkilot, deb yuritiladi*) Ittifoqning Nizomi va Chora-tadbirlarida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshiruvchi hamda yoshlarni birlashtiruvchi quyi organidir.

2. Boshlang‘ich tashkilot Ittifoqning kamida besh nafar a‘zosi yig‘ilishi qarori bilan tuzilib, O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy bo‘linishini hisobga olgan holda Ittifoqning mahalliy kengashlariga birlashadi.

3. Boshlang‘ich tashkilot o‘z faoliyatini tashkil etishda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”, “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Ustavi va Dasturi, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” PF-5106-sonli Farmoni, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks-chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3138-sonli qaroriga asoslanadi.

4. Boshlang‘ich tashkilotga O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi qarori bilan yuridik shaxs maqomi berilishi mumkin. Mazkur masalani ko‘rib chiqishda, birinchi navbatda, uning moliyaviy imkoniyatlari hisobga olinadi.

II. Boshlang‘ich tashkilotning maqsad va vazifalari

5. Boshlang‘ich tashkilotning asosiy maqsadi korxonada, tashkilot va muassasalarda faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislarining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ular orasidan iste‘dodli va iqtidorli yoshlarni yuzaga chiqarish, yosh mutaxassislarining “Ustoz-shogird” an‘anasiga muvofiq etuk mutaxassis bo‘lishlariga ko‘maklashish, shuningdek, yoshlarning ijtimoiy muammolarini echishda ko‘maklashishdan iborat.

6. Boshlang‘ich tashkilotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yosh mutaxassislar, ishchi-xodimlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning innovatsion g‘oyalarini amaliyotda tatbiq etishda ko‘maklashish, yosh xodimlarga ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratish;

- ishchi-xodimlar bilan muloqot olib borish, ularning shaxsiy hayotidagi hamda mehnat joyidagi muammolari ijobiy hal etilishida yaqindan ko‘maklashish;

- yangi ish boshlagan ishchi-xodimlarni “Ustoz-shogird” an‘anasiga muvofiq malakali mutaxassislariga biriktirish, malakali ustozlar tomonidan yosh mutaxassislariga mehnat sir-asrorlari o‘rgatilishini monitoring qilib borish;

- yoshlarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularni sog‘lom turmush tarzi hamda ommaviy sportga jalb etish.

III. Boshlang‘ich tashkilotning huquq va majburiyatlari

7. Boshlang‘ich tashkilot huquqlari quyidagilardan iborat:

- korxonada, tashkilot va muassasalar hamda Ittifoqning mahalliy kengashlarining komissiyalari ishida, boshqaruv kengashlarining yoshlar masalalari bilan bog'liq barcha yig'ilishlarida ishtirok etish, shuningdek, rahbariyat, yuqori tashkilot va organlarga takliflar kiritish;

- Ittifoq a'zosi hisoblangan ishchi-xodimlarni ishdan bo'shatish yoki intizomiy jazo choralarini ko'rishdan avval rahbariyatga munosabat bildirish;

- korxonada, tashkilot va muassasalarning barcha quyi bo'linmalaridagi yosh-xodimlar manfaatlarini himoya qilish yuzasidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- o'z faoliyatiga doir ma'lumotlarni tarqatish, targ'ib etish hamda yig'ilishlar, majlislar, tadbirlar, anjumanlar, seminar va davra suhbatlarini o'tkazish;

- mazkur nizomda belgilangan tartibda korxonada, tashkilot va muassasada o'z tuzilmalarini tashkil etish.

Boshlang'ich tashkilot tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanishi mumkin.

8. Boshlang'ich tashkilot majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining qonun va qonun osti hujjatlari, O'zbekiston yoshlar ittifoqining Ustavi hamda korxonada, tashkilot va muassasaning ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;

- korxonada, tashkilot va muassasada hamda Ittifoqning mahalliy kengashiga o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni o'rnatilgan tartibda taqdim etish;

- korxonada, tashkilot va muassasada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, yoshlar o'rtasida turli tadbirlarni tashkil etish.

Boshlang'ich tashkilot tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega.

IV. Korxonada, tashkilot va muassasalardagi boshlang'ich tashkilotda Ittifoqqa a'zolarini hisobga olish va a'zolikdan chiqarish

9. YOshlarni Ittifoqqa a'zolik qilish O'zbekiston yoshlar ittifoqi Ustavida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10. Ittifoqqa ta'lim muassasalarida a'zo bo'lgan yoshlar korxonada, tashkilot va muassasaga ishga qabul qilingan taqdirda boshlang'ich tashkilot tomonidan hisobga olinadi va ishdan bo'shagach, hisobdan chiqariladi.

V. Boshlang'ich tashkilotning tashkiliy tuzilmasi

11. Boshlang'ich tashkilotning tashkiliy tuzilmasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- a'zolarining umumiy (hisobot-saylov) yig'ilishi;

- boshlang'ich tashkilot kengashi;

- boshlang'ich tashkilot yo'nalishlari.

12. Boshlang'ich tashkilotda hisobda turgan Ittifoq a'zolarining bir yilda kamida bir marta o'tkaziladigan umumiy (hisobot-saylov) yig'ilishi uning rahbar organi hisoblanadi. Umumiy (hisobot-saylov) yig'ilishida boshlang'ich tashkilot etakchisining yillik faoliyati yuzasidan hisoboti eshutiladi, muhokama qilinadi hamda boshlang'ich tashkilot etakchisi saylanadi.

13. Umumiy (hisobot-saylov) yig'ilishi o'z ishida jami ishtirokchilar (delegatlar)ning uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirdagina vakolatli hisoblanadi. Ushbu organ tomonidan

qabul qilinadigan qarorlar ishtirokchilarning yarmidan ko'pi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

14. Umumiy yig'ilish vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- boshlang'ich tashkilot umumiy faoliyatiga oid qarorlar qabul qilish, yillik umumiy faoliyati bo'yicha hisobotini eshitish, baholash, kengashi a'zolari sonini belgilash, uning tarkibi hamda etakchisini saylash;

- Ittifoq a'ziligiga qabul qilish va a'zolikdan chiqarish;

- uzoq muddatli (yillik) ish rejasini tasdiqlash;

- yuridik shaxs maqomi berilgan boshlang'ich tashkilotlarda uning shtatlar jadvalini tasdiqlash;

- boshlang'ich tashkilot faoliyatini tugatish to'g'risida qaror qabul qilish.

15. Boshlang'ich tashkilot kengashi – Ittifoq a'zolari orasidan kamida besh kishidan iborat tarkibda saylab olinadigan boshlang'ich tashkilot ijroiya organi hisoblanadi. Kengashga boshlang'ich tashkilot etakchisi rahbarlik qiladi. Kengash tashkilot oldida turgan vazifalar, tasdiqlangan reja va tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Ittifoqning yuqori tashkilotlari qarorlari ijrosi bo'yicha chora-tadbirlar belgilaydi hamda amalga oshiradi, boshlang'ich tashkilotning kundalik faoliyatini boshqaradi.

16. Boshlang'ich tashkilot kengashi o'z ishida jami qatnashchilarning uchdan ikki qismi ishtirok etganda va qaror qabul qilishda qatnashchilarning yarmidan ko'pi ovoz berganda vakolatli hisoblanadi.

17. Boshlang'ich tashkilot kengashi tarkibiga Ittifoqning yakka yoki jamoaviy tartibdagi a'zolari orasidan yo'nalish koordinatorlari saylanadi.

18. Boshlang'ich tashkilot kengashi:

- Ittifoqning dasturiy maqsad va vazifalarini amalga oshiradi, Ittifoqning yuqori organlari va boshlang'ich tashkilotning umumiy yig'ilishi qarorlarini bajaradi, boshlang'ich tashkilotning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlaydi;

- boshlang'ich tashkilotning kundalik faoliyatiga oid qarorlar qabul qiladi, Ittifoq a'ziligiga qabul qilish va a'zolikdan chiqish ishlarini olib boradi;

- Ittifoq a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir masalalarni ko'rib chiqadi;

- umumiy yig'ilish va Ittifoqning yuqori organlari topshirig'iga binoan boshqa masalalarni hal etadi.

19. Boshlang'ich tashkilot etakchisi boshlang'ich tashkilotning hisobot-saylov yig'ilishida ochiq ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

20. Boshlang'ich tashkilot etakchisi lavozimiga 35 yoshdan oshmagan, korxonada, tashkilot va muassasada mehnat faoliyatini olib borayotgan, umumiy uch yillik mehnat stajiga ega bo'lgan xodimlar nomzodi ko'rib chiqiladi.

21. Boshlang'ich tashkilot etakchisining vazifa hamda vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- mazkur Nizom doirasida boshlang'ich tashkilot faoliyatini tashkil qilish, unga rahbarlik qilish hamda umumiy faoliyatni muvofiqlashtirish;

- Ittifoqning yuqori organlari, boshlang'ich tashkilotning rahbar va ijroiya organlari qarorlari bajarilishini ta'minlash;

- boshlang'ich tashkilot kengashi a'zolari orasidan boshlang'ich tashkilot yo'nalish koordinatorlarini tayinlash;

- boshlang'ich tashkilotning rahbar organlari qaroriga ko'ra boshqa vakolatlarni bajarish hamda mazkur Nizomga zid bo'lgan vazifalarni amalga oshirish.

22. Mazkur Nizomda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun boshlang'ich tashkilot quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib boradi:

23. Madaniy-ma'rifiy va huquqiy targ'ibot yo'nalishi koordinatori:

- yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga chuqur singdirishga qaratilgan davra suhbatlari, ochiq muloqotlar, seminar-trenninglar tashkil etadi;

- chetdan "ommaviy madaniyat" niqobi ostida kirib kelayotgan, milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan ma'naviy tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan targ'ibot ishlarini olib boradi;

- ishchi-xodimlar o'rtasida ma'naviy-axloqiy muhitni muntazam o'rganib boradi, yoshlar o'rtasida ma'naviy va madaniy tadbirlarni tashkil etadi;

- hududdagi diqqatga sazovor joylar hamda tarixiy obidalariga sayohatlar uyushtiradi;

- yoshlarning siyosiy madaniyati, huquqiy ongi va savodxonligi, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

24. Ommaviy tadbirlar va sport-salomatlik masalalari yo'nalishi koordinatori:

- mehnat jamoasidagi yoshlar o'rtasida ommaviy tadbirlarni tashkil etadi;

- yoshlarning kayfiyati va intilishlarini qo'llab-quvvatlaydi, ular ishtirokida turli xil ko'ngilochar konsert dasturlari, tanlov hamda boshqa ommaviy tadbirlarni tashkil etadi;

- ishchi-xodimlar muntazam ravishda sport bilan shug'ullanishi uchun uzoq muddatli kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqadi va tashkil etadi;

- ishchi-xodimlarni sog'lomlashtirish, ularni sog'lom turmush tarzi talablari asosida hayot kechirishiga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini o'tkazadi;

- korxonalar, tashkilot va muassasa hududi, shuningdek, uning atrofidagi hududlarida obodonlashtirish-ko'klamzorlashtirish ishlarini tashkil etadi.

25. "Ustoz-shogird" an'anasini muvofiqlashtirish va yosh xodimlarni kasbiy malakasini oshirish yo'nalishi koordinatori:

- yosh xodimlar, yangi ishga kirgan yosh mutaxassislarni malakali mutaxassislariga shogird sifatida biriktiradi;

- yosh mutaxassis bilan malakali mutaxassisning olib borayotgan ishlarini monitoring qiladi;

- yoshlarning kasbiy ko'nikmasini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- yosh kadrlarning kasbiy yuksalishiga xizmat qiladigan mahorat darslarini o'tkazadi;

- o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim muassasalaridan korxonalar, tashkilot va muassasalarga amaliyot o'tash uchun yuborilgan o'quvchi hamda talaba-yoshlarni belgilangan tartib asosida amaliyot o'tashiga sharoit yaratib beradi, ularga uslubiy-amaliy yordam ko'rsatadi.

26. Ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalish koordinatori:

- korxonada, tashkilot va muassasada mehnat qilayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ishchi-xodimlarning maishiy turmush sharoitini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, ular xonadonidagi tomorqadan unumli foydalanishi bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etadi;

- korxonada, tashkilot va muassasadagi ishchi-xodimlarga iste'mol kreditlari ajratilishida ko'maklashadi;

- korxonada, tashkilot va muassasada ishlab, nafaqaga chiqqan nuroniylar holidan xabar olish mexanizmini ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- korxonada, tashkilot va muassasa joylashgan hududda istiqomat qiluvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan oila farzandlari hamda imkoniyati cheklangan yoshlarning turmush sharoitini o'rganib boradi, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritadi;

- Mehribonlik, Sahovat uylarida korxonada, tashkilot va muassasa nomidan turli xil tadbirlar tashkil etish hamda ko'makka muhtojlarga bayramlar arafasida sovg'a-salomlar ulashish yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi.

VI. Boshlang'ich tashkilot faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash

27. Boshlang'ich tashkilot korxonada, tashkilot va muassasa rahbariyati tomonidan kamida 1 ta xona, mebel jihozlari (2 ta ish stoli, 1 ta katta aylana stol, 15 ta stul, 2 ta shkaf), 1 ta kompyuter jamlamasi (internet tarmog'iga ulangan), 1 ta proektor jamlamasi, printer, nusxa ko'paytirish uskunasi, fotoapparat, videokamera, akustika uskunalari, devonxona mollari, stendlar, ensiklopediyalar, badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar bilan ta'minlanadi hamda yoshlar uchun mo'ljallangan gazeta va jurnallar obunasini tashkil etiladi.

28. Boshlang'ich tashkilotga O'zbekiston yoshlar ittifoqi mahalliy kengashi tomonidan tegishli uslubiy qo'llanmalar, ko'rgazmali vositalar, turli ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy mavzudagi va boshqa tarqatma, targ'ibot materiallari etkazib beriladi.

29. Boshlang'ich tashkilotning ish rejasidagi asosiy masalalar korxonada, tashkilot va muassasaning yillik ish rejasiga kiritilib, moliyalashtiriladi.

VIII. Boshlang'ich tashkilot faoliyatini to'xtatish va tugatish tartibi

30. Boshlang'ich tashkilot faoliyati boshlang'ich tashkilot ochilgan korxonada, tashkilot va muassasa tugatilganda Ittifoq a'zolarining umumiy yig'ilishi qarori yoki qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa jihatlarga ko'ra to'xtatiladi.

31. Boshlang'ich tashkilot yuridik shaxs maqomiga ega bo'lsa, uning faoliyati tugatilgandan keyin xodimlar tarkibiga oid hujjatlar amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining arxiv muassasalariga saqlash uchun topshiriladi.